



XOTIN-QIZLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDA JINOYATCHI SHAXSI TAVSIFI

Maxtumova Yulduz Botir qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchi (PhD)

E-mail: Yulduzmaxtumova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21234126>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 03-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 05-iyun 2026 yil

KEY WORDS

*xotin-qizlarga nisbatan
zo'ravonlik, zo'ravon, huquqbuzar,
jinoyatchi shaxs, kiberzo'ravonlik,
huquqbuzarlik, huquqiy islohotlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning huquqiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi. Ayniqsa, jinoyatchi shaxsining psixologik portreti, unga xos xulq-atvor, turmush tarzidagi og'ishlar hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyillik darajasi ochib berilgan. Muallif "huquqbuzar shaxs" tushunchasiga oydinlik kiritish hamda maishiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan profilaktik hisob ishi yuritilishi zarurligini asoslaydi. Shuningdek, xorijiy, xususan Kanada tajribasi misolida kiberzo'ravonliklarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus markazlar faoliyati tahlil qilinib, O'zbekistonda ham shunday tuzilmalarni tashkil etish taklif qilinadi. Maqolada jinoyatchi shaxsini yosh, ijtimoiy ahvoli, psixologik holati, ichkilikbozlik yoki giyohvandlik darajasi kabi mezonlarga ko'ra guruhlariga ajratib o'rganish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Xulosa qismida esa xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni kamaytirish uchun qonunchilik, profilaktik va amaliy islohotlar zarurati ta'kidlanadi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan huquqbuzar hamda jinoyatchi shaxs haqida so'z borganda, avvalo zo'ravon, huquqbuzar, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs hamda jinoyatchi shaxsi tushunchalarini bosqichma-bosqich oydinlashtirish lozim bo'ladi.

Shu o'rinda, O'zbek tili izohli lug'atida zo'ravonlik sodir etuvchi "zo'ravon" quyidagicha ta'riflanadi "Jismonan baquvvat, bahodir, botir, pahlavon. Zolim, zulm o'tkazuvchi hukmdor, o'zgalarga qonunsiz ravishda kuch ishlatuvchi, zo'rlik qiluvchi shaxs".[1]

Zo'ravonlar tahdidlar bilan bir qatorda quyidagi harakatlar orqali ham o'zlarining hukmronligini namoyish qilishga urinishlari mumkin: telefonini olib qo'yish, kiyimlarini yirtish yoki shaxsiy buyumlarini sindirish, uyga qamab qo'yish, kuch ishlatish orqali qo'rqitish va boshqalar. Zo'ravon asosan quyidagi jinoyatlardan birini sodir etish orqali o'z kuchini namoyish etadi: Qasddan badanga og'ir (104-modda), o'rtacha og'ir (105-modda) yoki yengil

(109-modda) shikast yetkazish, Qiynash (110-modda), O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (112-modda), Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (114-modda), Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash (115-modda), Xavf ostida qoldirish (117-modda), Nomusga tegish (118-modda), Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda), Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (121-modda), Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (122-123-moddalar), Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (125¹-modda), Tilanchilik qilish (127¹-modda), Odam savdosi (135-modda), Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (136-modda) va boshqalar.

Mazkur qilmishlarni sodir etgan shaxs Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga asosan javobgarlikka tortiladi.[2.b-18-19]

Xorijiy adabiyotlarda zo'ravon so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi "Kimgadir yoki biror narsaga zarar yetkazish, zarar yetkazish yoki o'ldirish uchun jismoniy kuch ishlatish yoki jalb qilish." [3] Ushbu ta'riflarga shuni qo'shimcha qilish mumkin: Zo'ravon — boshqalarga adolatsiz va shafqatsiz munosabatda bo'ladigan, ularning imkoniyat va erkinlikka ega bo'lishiga to'sqinlik qiladigan shaxsdir. U faqat jismoniy kuch ishlatibgina emas, balki ruhan tazyiq o'tkazish, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsni o'z xohish-istaklariga qarshi harakat qilishga majburlash orqali ham zo'ravonlik qilishi mumkin. Demak, bizning tushunchamizga ko'ra, zo'ravon jismonan baquvvat bo'lmasa-da, jabrlanuvchiga nisbatan kuch ishlatmasdan ham zo'ravonlik qilishi mumkin.

Zo'ravondan kengroq va huquqiy oqibat mavjudligini anglatuvchi tushuncha bu huquqbuzar shaxsdir. **Huquqbuzar** -mavjud qonun-qoidalar, huquqiy me'yorlarga amal qilmaydigan, ularni buzuvchi, jinoyatchi.[1] deya ta'rif beriladi O'zbek tili izohli lug'atida. Xorijiy adabiyotlarda huquqbuzar - jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etganlikda ayblangan shaxsga nisbatan jinoiy qonun kontekstida qo'llaniladigan yuridik atama "Voyaga etgan jinoyatchi - voyaga yetganidan keyin jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan shaxs", "Yosh huquqbuzar - bu kech o'smirlik davrida yoki erta voyaga etganida, lekin qonuniy voyaga etgunga qadar jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxsdir" [4] deb ta'rif berilgan. O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida Huquqbuzarlik (sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik), g'ayriijtimoiy xulq-atvor (shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;) va huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs (o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxs.) [5] tushunchasi yoritilgan ammo huquqbuzar shaxsiga oydinlik kiritilmagan. Bizning fikrimizga ko'ra, huquqbuzar- amaldagi qonunchilikka binoan ma'muriy va jinoiy va boshqa qonun hujjatlarida javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli, harakat yoki harakatsizlikni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan, qonuniy javobgarlik yoshiga yetgan, ruhan sog'lom shaxs deb hisoblaymiz.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga portretiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida "o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxs" deya ta'rif berilgan.[5] G'ayriijtimoiy xulq-atvori tushunchasiga ham ushbu

qonunda “shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;”[5] deya ta’rif berib o’tilgan va biz tushuncha haqida yuqoridagi paragrlarda atroflicha tanishganmiz. Shunig uchun Xorijiy davlatlarda jumladan Angliyada huquqbuzarlikka moyillikni shaxs psixologiyasiga bog’lashadi. Psixologiya va jinoyatchilik turli xil ta’lim sohalaridir, lekin jinoyat sodir etish paytida shaxsning ruhiy holatini, his-tuyg’ularini va zarur bo’lgan erkak qobiliyatini aniqlash uchun birgalikda o’rganiladi. 20-asrning dastlabki yillarida psixologlar jinoiy xulq-atvorga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlashga harakat qilishdi. 1964 yilda ingliz psixologi Hans J. Eysenck jinoiy xatti-harakatlarga oid birinchi nazariy yondashuvni nashr etdi. Insonlar ko’pincha undan moddiy manfaat ko’rish uchun jinoyat qilishadi, masalan, odam qashshoqlikka dosh berish yoki och qolgan oilasini boqish uchun o’g’irlik qilishi mumkin. Aksincha, zo’rlash, qotillik, o’g’irlash va hokazolar kabi bir qancha jinoyatlar ko’pincha psixologik omillarga sabab bo’ladi.[6]

Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo’lgan shaxsga men avval shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi hamda ma’muriy va jinoiy va boshqa qonun hujjatlarida javobgarlikka tortish nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan psixologik jihatdan jinoyat sodir etish ehtimoli bo’lgan shaxslar degan jumlani ham kiritgan bo’lar edim. Chunki g’ayriijtimoiy xulq-atvori jumlasining o’zi bularning hammasini qamrab olmaydi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo’ravonliklarda yoritilishi lozim lozim bo’lgan navbatdagi tushuncha bu jinoyatchi shaxslarining tavsifidir. **Jinoyatchi shaxsi** — jinoyat sodir etgan shaxsga salbiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan sifatlar hamda tashqi shart-sharoitlar bilan bog’liq xulqi jinoyatchi shaxsining umumijtimoiy va jinoyat huquqiy mazmuni tushunchasida o’zaro aloqadorlik mavjud. Shuningdek har qanday shaxsda ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan sifatlar, tabiat va jamiyatdagi shart-sharoitlar o’z aksini topgan bo’ladi. Shuni ham ta’kidlash zarurki jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan faqat jinoyatni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxsni jinoyatchi deb hisoblash mumkin[7].

Olima **Q.R.Abdurasulova** Jinoyatchi shaxsiga quyidagicha ta’rif beradi – avvalo jinoyat subyektining shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan jinoyat subyekti uni aynan subyekt deb topish uchun zarur ko’rsatkichlarga ega bo’lishi lo-zim. Bunday ko’rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs (jahonning ba’zi bir mamlakatlarida yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti deb topish imkoniyati nazarda tutilganki, bunga qo’shilish qiyin), shaxsning muayyan yoshga to’lganligi (MDHning bir qancha mamlakatlari qonunchiligiga ko’ra 14, 16, 18 yosh, jahonning ba’zi bir mamlakatlari jinoyat kodekslariga binoan esa – bundan ham kichikroq yosh) va aqli rasolik.[8;B.62-63]

B.V.Voljenkin jinoyatchi shaxsi tarkibidagi belgilarni uch guruhga ajratishni taklif qiladi:

1. Shaxsning jamiyat a’zosi sifatidagi umumiy belgilari.
2. Jinoyatchi shaxsining uni boshqa fuqarolardan farqlash imkonini beruvchi, lekin barcha jinoyatchilar uchun umumiy bo’lgan (uning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflaydigan) alohida belgilari.

3. Jinoyatchi shaxsining mazkur odamni tavsiflaydigan o’ziga xos belgilari.[9]

N.T.Vedernikov shaxs belgilarini ikki guruhga ajratishni taklif qiladi:

- a) individuallashtiruvchi belgilar (shaxsning tarjimai holi, moddiy ahvoli, jismoniy va ruhiy sog’lig’i haqidagi ma’lumotlar);

b) shaxsning ijtimoiy (ishlab chiqarishga oid, siyosiy va oilaviy) tavsifi. [10;b.8] borligini ta'kidlaydi.

Y.D.Bluvshiteyn esa jinoyatchi shaxsining demografik, ijtimoiy, huquqiy, psixologik va biologik (tibbiy) belgilarini farqlaydi.[11;B.8]

Jinoyatchilarni har xil asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Jinoyatchilarni ular sodir etgan jinoyatlarning turlari yoki xususiyatiga ko'ra tasniflash ("o'g'rilar", "firibgarlar", "bezorilar", "zo'rlik ishlatuvchilar", "poraxo'rlar" va h.k.) eng sodda va umumiy e'tirof etilgan tasnifdir.

Jinoyat sodir etish motivlarining xususiyatiga ko'ra jinoyatchilarning "g'arazgo'y", "zo'ravon", "nufuzli", "seksual" va boshqa tiplari farqlanadi.

Jinoyatchi shaxsi, avvalo jinoyat subyektining shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan jinoyat subyektini uni aynan subyekt deb topish uchun zarur ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim. Bunday ko'rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs, shaxsning muayyan yoshga to'lganligi va aqli rasolik. Ammo jinoyatchi shaxsini tavsiflash uchun jinoyat subyektining faqat jinoyat huquqiy belgilari yetarli emas. Muayyan subyektning jinoyat sodir etishi faqat jinoyat sodir etgan odam shaxsi mavjudligini e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat subyektining shaxsi odamning asosan jinoiy xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa xar xil ko'rsatkichlarini ham qamrab oladi. Jinoiy xulq-atvor, eng avvalo, odamni qurshagan borliq, muhit bilan belgilanadi. Lekin, ayni vaqtda, u shaxsning muayyan mayllari, intilishlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini ham aks ettiradi. Tabiiyki, odam qanday salbiy xususiyatlarga ega bo'lmasin, agar u jinoyat sodir etmagan bo'lsa, uni jinoyatchi deb hisoblash mumkin emas. Jinoyat sodir etganlik holati muayyan odamni g'ayriijtimoiy shaxs sifatida tavsiflaydi, lekin uning mazmun — mohiyatini to'liq tushuntirib bermaydi. Jinoyatchi shaxsini to'laqonli tavsiflash va baholash uchun uning ham ijobiy, xam salbiy xulq-atvorini belgilovchi barcha xislatlari xam o'z aksini topadi. Jinoyat subyektining shaxsi uch darajada : jinoyatchi shaxsi umumiy tushunchasi nuqtai nazaridan, xar xil toifaga mansub jinoyatchilarning belgilarini aniqlash nuqtai nazaridan va muayyan jinoyat sodir etgan shaxs (masalan, o'g'irlik, odam o'ldirish, nomusga tegish, avtomobilni olib qochish va h.k. jinoyatlar sodir etuvchi shaxslar) darajasida o'rganilishi lozim.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarda jinoyatchi shaxslarining tavsifi – bu bunday zo'ravonliklarni amalga oshiradigan shaxslarning umumiy va xususiy psixologik, ijtimoiy hamda huquqiy portretini anglatadi. Bu tavsif jinoyatlarning oldini olish, tahlil qilish va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Shaxs jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. U irsiyat orqali ham o'tmaydi. Jinoyatchilik ta'lim-tarbiya, atrofdagi insonlar ta'siri, ota-ona, do'stlar, qarindoshlar, referent guruhlar bilan bo'lgan munosabatlar, atrof-muhit ta'sirida kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari shaxsiy qiziqish, ehtiyoj, irodasizlik ham jinoyatni kelib chiqishiga sabab bo'la oladi. Shunday ekan, jinoyat o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Ya'ni turli xil omillar va motivlar uni sodir bo'lishiga olib keladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslar turli ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha quyidagi guruhlar ajralib turadi:

Yosh toifasi: ko'p hollarda 25–45 yosh orasidagi erkaklar tomonidan oilada sodir etiladi. O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan 2024 yil davomida ayollarga nisbatan Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish bilan bo'liq jinoyatlar Respublika jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan jami 3442 ta shaxsga nisbatan sud ishlari

ko'rilgan bo'lib, shundan 18 yoshgacha bo'lgan ayblanuvchilar 124 nafarni 18-30 yoshgacha bo'lgan ayblanuvchilar 1024 nafarni, 30-60 yoshgacha bo'lgan shaxslar 1294 nafarni, 60 yosh va undan yuqori shaxslar 70 nafarni tashkil qilgan. Bundan kelib chiqadiki, Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik o'tkazuvchilar asosan o'rta yoshlilarni tashkil qiladi.[12]

Ish bilan bandlik. Muvaqqat ishchilar yoki past darajadagi ishlarda ishlovchilar orasida yuqori hamda ishsizlar tomonidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik ko'roq sodir etiladi. O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan 2024 yil davomida ayollarga nisbatan Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish bilan bo'liq jinoyatlar Respublika jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan jami 3442 ta shaxsga nisbatan sud ishlari ko'rilgan va shundan 2042 nafar shaxs rasman ishsiz [12]

Ichkilikbozlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilish- bu omillar zo'ravonlik xavfini ancha oshiradi. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar xodimlari tomonidan 2024 yil davomida ayollarga nisbatan Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik o'tkazganligi uchun himoya orderi nusxasi berilgan 3241 nafar shaxs mast holatda bo'lgan hamda 5 nafar shaxs giyohvand moddasini iste'mol qilgan holatda bo'lgan[13]

Hukumronlik qilishga intilish oqibatida oiladagi shaxslar tomonidan sodir etiladi. Oilada yoki munosabatlarda ustunlikni saqlab qolish istagi ya'ni oilada yakka boshqaruvni xohlash oqibatida zo'ravonliklar ko'p hollarda turmush o'rtoqlari, birga yashovchi sheriklar yoki yaqin qarindoshlar tomonidan sodir etiladi. 2024 yil davomida O'zbekiston Respublikasida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga jami 54757 ta himoya orderi berilgan bo'lib, shundan 37392 tasi jabrlanuvchining turmush o'rto'g'iga nisbatan berilgan. Shuningdek, 1419 tasi kelini tomonidan qaynonasiga, 2039 tasi qaynonasi tomonidan keliniga berilgan. Qolgan 13907 tasi esa boshqalarga berilgan. Bundan kelib chiqadiki, zo'ravonliklarning 75 % oilada, oila vakili tomonidan sodir etiladi.[13]

Zero, bugungi kunda sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i xotin-qizlarga nisbatan sodir etilishi isbotlangan. Butun jahon statistikasiga ko'ra, xotin-qizlarga nisbatan asosan ularning oila a'zolari (asosan turmush o'rtoqlari) tomonidan tazyiq va zo'ravonlik sodir etiladi. Taxminan 736 million ayol (deyarli har uchdan biri) hayotida kamida bir marta jismoniy va jinsiy yaqin sherigi zo'ravonligiga, sherik bo'lmagan jinsiy zo'ravonlikka yoki ikkalasiga ham duchor bo'lgan (15 va undan katta yoshdagi ayollarning 30 foizi). Bu raqam jinsiy zo'ravonlikni o'z ichiga olmaydi. Zo'ravonlikni boshdan kechirgan ayollar ko'proq depressiya, bezovtalik buzilishi, rejalashtirilmagan homiladorlik, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar va OIV infeksiyasidan aziyat chekishadi, bu esa uzoq davom etadigan oqibatlarga olib keladi.[14]

2023 yilda dunyo bo'ylab 51 100 ga yaqin ayol va qiz o'zlarining yaqin sheriklari yoki boshqa oila a'zolari tomonidan o'ldirilgan. Demak, har kuni o'rtacha 140 nafar ayol yoki qiz o'z oilasidan kimdir tomonidan o'ldirilmoqda.[14]

Ayollarning qotilliklarining 60 foizi yaqin sheriklar yoki boshqa oila a'zolari tomonidan sodir etilgan bo'lsa-da, barcha erkaklar qotilliklarining atigi 12 foizi xususiy sohada sodir etilgan.[14]

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasida turli xil islohotlar o'tkazilmoqda va xotin-qizlar manfaatlari hamda haq-huquqlarini himoya qiluvchi qator qonunlar qabul qilinmoqda ammo tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxs bilan ishlash masalasi ochiqqligicha qolmoqda. Bu borada "Himoya orderi joriy qilindi,

bir yilgacha cho'zib berildi. Zo'ravonlikka uchragan ayollarga ham tibbiy yordam ko'rsatiladi, kasbga o'qitiladi, ishga joylanadi, u bilan psixologik ishlaydi, ijtimoiy xodim ishlaydi, lekin zo'ravonlik qilgan shaxs bilan hech kim ishlamaydi. U yo'chilikka berilgan bo'ladi, yo salomatligida muammosi bor odam bo'ladi. Shuning uchun u bilan hech kim ishlamaydi. Ayol bilan ishlanadi, lekin u zo'ravon bilan hech kim ishlamaydi. Himoya orderining muddati tamom bo'lgandan keyin ayol yana o'sha zo'ravonning uyiga kiritib qo'yiladi va bu ish yana davom etaveradi. Shuning uchun buning ildizi bilan ishlash kerak degan masalaga e'tiborni kuchaytirish kerak bo'ladi", — deydi T. Narbayeva.[14]

Shu jumladan yurtimizda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasida ayrim bahs munozarali muammolar bor.

1.O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi qonunida [16] Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 59²-moddasi (Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik) kiritilgan bo'lib unga ko'ra, "Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni, qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, bosharti jinoyat alomatlari, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar alomatlari mavjud bo'lmasa"[17] ma'muriy javobgarlik belgilangan hamda ushbu modda bilan javobgarlikka tortish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-haqorat qilish, ya'ni "sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash", yoki 52-moddasi "shaxs sog'lig'iga qasddan shikast yetkazish" alomatlari bo'lsada *O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuning* 35-moddasi "O'ziga nisbatan profilaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar"[5] toifasiga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan shaxslarga profilaktik hisob yuritish haqida kiritilmagan.

2.Amaldagi O'zbekiston Respublikadagi normativ hujjatlari va qonunlarda huquqbuzar shaxsi hamda zo'ravonlik sodir qiluvchi shaxsi to'la ochib berilmagan va yoritilmagan. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxsning portretini anglatuvchi aniq va lo'nda izohli atama mavjud emas. Zero, bu tushuncha sodir etilgan barcha turdagi qonunbuzilishlarini sodir etgan shaxsga nisbatan ishlatilishi mumkin va jinoyatchi shaxsidan kengroq hisoblanadi. Bu borada xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak Argentinada ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilishning kuchli normativ huquqiy tizimi yaratilgan. Jumladan, Argentina Milliy kongressi tomonidan "Oilaviy zo'ravonlikka qarshi himoya qilish to'g'risida"gi va "Ayollarni har tomonlama himoya qilish to'g'risida"gi Milliy qonunlar qabul qilingan. Argentina qonunchiligiga "oilaviy zo'ravonlik", "ayollarga nisbatan zo'ravonlik" tushunchalariga kiritilgan.[18]

3. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxs bilan ishlovchi tuzatish dasturlari to'liq yo'lga qo'yilmagan. zo'ravonlikka yo'l qo'yayotgan shaxslar bilan individual ishlar olib borilmaydi faqat jabrlanuvchi bilan ishlanadi va zo'ravon faqat jinoiy yoki ma'muriy jazolanadi yoki mavhumligicha qoladi va shu bilan huquqbuzar shaxsi e'tibordan chetda qoladi. Buning isboti sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan 2024 yil davomida

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik o'tkazish bilan bo'liq jinoyatlar jumladan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi bilan Respublika jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan jami 42275 nafar shaxsga nisbatan sud ishi ko'rilgan bo'lsa, shundan 1167 nafar shaxs tazyiq va zo'rvonlikni davom ettirganligi tufayli O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 126¹-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan[1]

4.Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan jazo choralarini sust. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim. Masalan, Singapurda nomusga tegish jinoyati uchun 20 yilgacha ozodlik mahrum qilish jazosi belgilangan. Bizda esa ushbu holatda javobgarlik uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilangan [19]

5.Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlarida ko'p hollarda zo'rvon mavhumligicha qolmoqda. Bu borada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Xorijiy davlatlarda Jinoiy shaxsning profilini aniqlash tergov harakati ishlab chiqilgan. Bu usul, ayniqsa, huquqbuzarlarning demografik va psixologik xususiyatlari haqida tushuncha berish orqali potensial gumonlanuvchilarni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Profilerlar ketma-ket jinoyatchilar izchil xulq-atvor namunalarini namoyish etadilar va jinoyat sodir bo'lgan joyda ularning yashirin istaklari va psixologik xususiyatlarini aks ettiruvchi aniq maslahatlar qoldiradilar[20]

Yuqoridagi kamchiliklarni inobatga olib O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etgan huquqbuzar shaxsi bilan samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Jumladan;

O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuning 35-moddasi "O'ziga nisbatan profilaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar"toifasiga tazyiq va zo'rvonlik sodir etuvchi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan shaxslarni ham kiritish hamda ular bilan ham rejali profilaktik hisob ishlari olib borilishi lozim. Bu ularning kelgusida takroran xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilishi holatlarini kamaytiradi;

O'zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarida "huquqbuzar shaxs", "tazyiq va zo'rvonlik sodir etuvchi shaxs" tushunchalari keng yoritilishi lozim. Huquqbuzar shaxs atamasi nafaqat ma'muriy va jinoiy huquqbuzarlik sodir etuvchi, balki, qonun va qonun osti hujjatlar hamda qonuniy nizomlarda belgilangan tartib-qoidalarni qasddan yoki ehtiyosizlik oqibatida sodir etgan aqli raso shaxsni anglatadi hamda bu atama jinoyatchi shaxsi, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs, g'ayri ijtimoiy xulq-atvordagi shaxs atamalaridan kengroq ma'noga egadir. Tazyiq va zo'rvonlik sodir etuvchi shaxs yoki zo'rvon shaxs esa doim ham aqli raso shaxs bo'lmasligi mumkin va bu holatda huquqiy oqibat kelib chiqmaydi. Huquqbuzar shaxs va zo'rvon shaxs o'rtasidagi farq shu bilan farqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo'rvonliklarning og'ir oqibatga olib keluvchi turlariga og'irroq sanksiya joriy etish; jumladan O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 112-modda "o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish", 114-modda "jinoiy ravishda homila tushirish (abort)" 115-modda "ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash", 117-modda "xavf ostida qoldirish", 118-modda "nomusga tegish" 119-moddasi "jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish", 121-moddasi "ayolni

jinsiy aloqa qilishga majbur etish", 122-123-moddalar "ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash", 125¹-modda "nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" 135-modda "odam savdosi", 136-moddasi "ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish" kabi moddalarida.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, kiberzo'ravonliklar bilan ishlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, kiberjinoyatlarga qarshi kurashi markazlari tashkil etish.

Kanada davlatida Kanada Firibgarlikka qarshi kurash markazi va Milliy kiberjinoyatlarni muvofiqlashtirish markazi tashkil etilgan bo'lib, hamda Kanada Firibgarlikka qarshi kurash markazi onlayn hisobot tizimi 1-888-495-8501 ishonch telefon raqamlari yaratilgan hamda milliy kiberjinoyat va firibgarlik haqida hisobot berish tizimini joriy etilgan [21] O'zbekistonda ham shu kabi markazlar tashkil etish hamda ushbu markazlarga soha mutaxassislarini jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarda jinoyatchi shaxsi keng tushuncha bo'lib O'zbekiston qonun va qonunosti hujjatlarida keng tavsif berilmagan bo'lsada, jinoyatchi shaxsi huquqbuzartlik sodir etuvchi shaxs, g'ayri ijtimoiy xul-atvor, zo'ravon tushunchalaridan kelib chiqib, ma'lum huquqbuzarlikni sodir etuvchi maxsus subyekt sifatida anglash mumkin. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxsni bir necha toifalarga bo'lib chiqish mumkin Jumladan Yosh toifasiga ko'ra, ma'lumot darajasiga ko'ra, Ish bilan bandlik yoki ishsizligiga ko'ra, ichkilikbozlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilgan va qilmasligiga ko'ra, Psixologik va shaxsiy xususiyatlariga ko'ra, Moliyaviy sabablar ko'ra, Ma'naviy jihatdan pastlik va aqliy holat buzilishi ko'ra toifalarga bo'lib o'rganiladi. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarda jinoyatchi shaxsi bilan ishlashda yurtimizda ko'plab islohotlar o'tkazilishi lozim ayniqsa xorij tajribasiga asosan kiberzo'ravonliklarlar borasida

References/ список источников/ foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbek tili izohli lug'ati
- 2.S.Axmedov. "Oiladagi zo'ravonlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini" mavzusida yozilgan magistrlik ishi T.2022. 18-19 betlar
3. Oxford language. <https://languages.oup.com/google-dictionary-en/>
4. Kornell huquqi sayti. <https://www.law.cornell.edu/wyex/offender>
5. 2014 yil 14-may O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/387357?ONDATE>
6. "International journal of law management and humanitiyes" Amity yuridik maktabi, Kolkata, Hindiston III jild, III soni, 2020 yil <https://ijlmh.com/psychology-and-crime-are-some-people-more-prone-to-commit-crimes-than-others/>
- 7.O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi
8. Q.R.Abdurasulova Toshkent Davlat Yuridik Unversiteti "kriminologiya" darsligi T.-2008 62-63-betlar
9. Voljenkin B.V. Obuyestvennaya opasnost prestupnika i yeye znachenije dlya ugolovnoy otvet-stvennosti i nakazaniya // Avtoreferat kand. diss. – L., 1964.
10. Vedernikov N.T. Izucheniye lichnosti prestupnika v prosesse rassledovaniya // Avtoreferat kand. diss. – M., 1965. – 8-b.

11. Bluvshcheyn Yu.D. Teoreticheskiye voprosy statisticheskogo poznaniya lichnosti prestupnika po materialam ugodovnykh del o grabezhax i razboynyx napadeniyax // Avtoreferat kand. diss. –M., 1968. 8-b.
12. Sud.uz sayti. <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>.
13. O'zbekiston Respublikasi IIV HPB hisoboti shakl-6
14. "UnWomen" halqaro tashkilotining "For all women and girl" sayti <https://www.unwomen.org/en/articles/facts-and-figures/facts-and-figures-ending-violence-against-women>
15. Gazeta.uz sayti. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/15/narbayeva/>
16. 2023 yil 11 apreldagi O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi qonuni.
17. Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'risidagi kodeksi.
18. https://www.oas.org/dil/esp/Ley_de_Proteccion_Integral_de_Mujeres_Argentina.pdf
19. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi.118-modda, 2-xatboshi
20. EBSCOhost sayti Muallif : Lurigio, Artur J., Ph.D.2024 yil.
21. Kanada qurollik polisiyasi sayti. <https://rcmp.ca/en/federal-policing/cybercrime/cybercrime-defined>

INNOVATIVE
ACADEMY